



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 10 oktyabr

№ 1832

Navoiy viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining faoliyatini tekshirish natijasi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 10 oktabrdagi xulosasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I :

1. Navoiy viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining 2022 yil hamda 2023 yilning 9 oyi davomida faoliyatini tekshirish natijasi yuzasidan Sudyalar oliy kengashi sudyasi G.Ziganshinaning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyat sudlari sudyalari malaka hay’atining (malaka hay’atining) 2022 yil va 2023 yilning 9 oyi davomidagi faoliyati qoniqarsiz deb hisoblansin.

3. Malaka hay’atining faoliyatini yaxshilash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

– Malaka hay’atining ish rejasida belgilangan vazifalarni to‘liq va sifatli bajarilishi ta’minlansin;

– Malaka hay’ati faoliyati bo‘yicha ish yurituvi “Sudyalarga nisbatan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom hamda “Sudyalarning malaka hay’atlarida ish yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaga asosan tashkil etilsin;

– Yangi vakolat muddatiga yoxud boshqa sudyalik lavozimlariga ko‘rsatilayotgan sudyalarga doir taqdim etilgan materiallarning to‘liqligi va to‘g‘riligi tekshirilishiga hamda sudyalarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llashda qonun bilan belgilangan vakolatlar doirasida qaror qabul qilinishiga e’tibor qaratilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov